

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “PEDAGOGIKA” kafedrasi dotsenti  
(PhD) Vahobov Anvar Abdusattorovich taqrizi ostida**

**Yuldashev Sardorxon Rashitxon o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Telefon raqami: +998 93 536 36 96

E-mail: [Sardor4640@gmail.com](mailto:Sardor4640@gmail.com)

---

## **BO‘LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK O‘QITUVCHILARIKA MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilariga mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘rnii to‘g‘risida nazariy bilimlarni shakllantirish hamda pedagogik imkoniyatlari, ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori kasbiy saloxiyat, shuningdek muloqatchanlik, ijodkorlik, kasbiy-axloqiy va ijobjiy fazilatlarga ega bo‘lish xaqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** innovatson yondoshuv, intellektual, metodika, tarmoq, tamoyil, ofitser, ixtisos, mutaxassis, pedagog, standart, indikator, kognitiv, refleksiv, komponent, akseologik, kreativ, motivatsion, deontologik.

**Аннотация:** В данной статье до следующего созыва формирование теоретических знаний и педагогических возможностей, особенностей и роли методики преподавания профильных предметов у учителей начальных классов в образовательном процессе речь идет также о наличии высшей профессиональной компетентности, как коммуникабельность, креативность, профессионально-этические и положительные качества.

**Ключевые слова:** инновационный подход, интеллектуальный, методология, сеть, принцип, офицер, специальность, специалист, педагог, стандарт, показатель, когнитивный, рефлексивный, компонент, аксиологический, творческий, мотивационный, деонтологический.

**Annotation:** In this article, until the next convocation, the formation of theoretical knowledge and pedagogical capabilities, features and the role of teaching methods for core subjects among primary school teachers in the educational process also refers to the presence of higher professional competence, such as communication skills, creativity, professional, ethical and positive qualities.

**Key words:** innovative approach, intellectual, methodology, network, principle, officer, specialty, specialist, teacher, standard, indicator, cognitive, reflective, component, axiological, creative, motivational, deontological.

Respublikamizda milliy ta’lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O‘z navbatida, islohotlar ta’lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi

darajali vazifamiz deb bilamiz»<sup>1</sup>. Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining o‘qitish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak harbiy pedagog kadrlarni innovation faoliyatga yo‘naltirish, oliv ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovation ta’lim va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliv ta’lim tizimini modernizasiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Ta’lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ana shu mustaqillikni, mamlakatimiz xalqining buniyodkorlik mehnatini va tinch hayotini, osoyishtaligini himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan harbiy islohotlarning talablaridan biri Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarini, yuksak intellektual, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan harbiy kadrlarni tayyorlashdir. Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Harbiy akademiyalar, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fakultetlari, “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari, umumiyo‘rta ta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati tashkil etilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Bu ishni amalga oshirishda harbiy fanlar qatori ijtimoiy fanlarning, jumladan harbiy pedagogikaning ham ahamiyati beqiyosdir. Chunki o‘z bo‘ysunuvchilariga ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmay turib zamonaviy talablarga javob beruvchi harbiy mutaxassisni tayyorlash ishini samarali amalga oshirish mumkin emas. Xalqning umumiyo‘rta harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarning matonatli, shijoatli qilib tarbiyalshda ajododlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san’at sirlarini harbiy o‘quv yurtlarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Bularidan tashqari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda umumta’lim maktablari va professional ta’lim tizimlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Shu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandard yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda...”.

Mamlakatimizdagagi oliy harbiy o‘quv yurtlariga kirib ta’lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga hozirlik ko‘rayotgan yoshlarimiz umumta’lim maktablari va professional ta’lim tizimidagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta’lim tarbiyani oladilar va o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bunday ta’lim jarayonini umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasi bilan Bo‘lajaka chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari hamkorlikda amalga oshirishlari shart.

Har sohada bo‘lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma’lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo‘lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli inson, o‘z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o‘z bo‘ysunuvchilariga tarbiya va ta’lim bera oladigan pedagog bo‘lishi zarur.

Shunday ekan, o‘z-o‘zidan bunday dolzarb vazifalarini bajarishda oliy ta’lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik yo‘nalishi jamoasining Bo‘lajaka chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi va bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. –22-6.

o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e’tiborga molikdir.

Harbiy fanni rivojlantirish masalasi strategik vazifalar qatoriga kirib, davlatning mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash funksiyasi doirasida amalga oshiriladigan istiqbolli masalalar qatoriga kiradi. Chunki xavf-xatarning turi, vujudga kelganlik sababi, harakat yo‘nalishi, ko‘rinishi va maqsadini bilmasdan turib, turli darajada xavf-xatarlardan himoyani ta’minlab bo‘lmaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, inson faoliyati – bu juda serqirra va murakkab xodisadir. Inson faoliyatiga ko‘p omillar tasir ko‘rsatadi, ularning asosiyalariga ruhiy, fiziologik va ijtimoiy omillarni kiradi.

Ruhiy omillarga shaxsning ruhiy jarayonlari (idrok etish, xissiyotlar va irodaviy jarayonlarni kechish xususiyatlari), holatlari (qo‘zg‘aluvchanlik, tushkunlik, toliqqanlik, xursandchilik, ranjish, jaxldorlik va h.k), xususiyatlari (temperament turlari, tug‘ma moyillik, qobiliyat va h.k), sifatlari (yo‘nalganlik, xarakterning xususiyatlari va h.k) va ma’lumoti (bilim, ko‘nikma, professionallik, hayotiy tajriba va h.k) kiradi.

Fiziologik omillarga insonning oddiy narsalarga: ovqatga, bosh-panaga, issiqqa, qulaylikka, normal moddiy-maishiy sharoitlarga va boshqalarga bo‘lgan ehtiyoji kiradi.


Ijtimoiy omillarga insonni ijtimoiy ehtiyojlari kiradi: muloqat qilish, kasb tanlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va boshqalar.

Harbiy xizmat o‘zida inson faoliyatining nafaqat ijtimoiy muhimlikni mujassam etgan, balki, oddiy faoliyat doirasidan chiqadigan, maxsus sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi hisoblanadi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda metodik kompetensiyasining rivojlantirish sifati va son darajasi pastligi ekanligi ko‘zga tashlanib turibdi. Natijada dolzarb masalalardan biri barcha harbiy ta’lim fakultetlarida bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarini mutaxassislik fanlarini o‘qitishga ya’ni Harbiy rahbar mahorati va etikasi misolida o‘quvchi-yoshlarni o‘z Vataniga va Prezidentiga sodiq bo‘lgan, sog‘lom intellektual salohiyatli, jismonan baquvvat avlodni shakllantirishni rivojlantirish maqsadida bu fanni o‘qitish;

DTS, o‘quv va ishchi o‘quv fan dasturlarining davr talabiga ko‘ra takomillashuvidan kelib chiqib o‘quv adabiyotlarini yaratish, ya’nni bunda mutaxassislik fanlaridan adabiyotlarni yetrali ekanligi, ularni talab darajasida ekanligi va ularni o‘qitish metodikasini takomillashmaganligi dolzarb masalalardir.

Harbiy qism va bo‘linmalar, muassasalarning faoliyatini tashkillashtirishda bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning umumprofessional tayyorgarligi, ularning raxbarlik mahorati alohida o‘rin tutadi. Ushbu tushunchalarning mazmun va mohiyati Harbiy rahbar mahorati va etikasi doirasida o‘rganiladi.



**1. rasm.** Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining Harbiy rahbar mahorati va etikasi fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari

Fan sifatida Harbiy rahbar mahorati va etikasi fanining vazifasi bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisini Harbiy rahbar mahorati va etikasining asosiy qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratdir. Har bir bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi bu qonuniyatlarini bilishi zarur. Harbiy Harbiy rahbar mahorati va etikasini o‘rganish harbiy xizmatchining o‘zidan boshqa kishilarni tushunishiga, ularning ruhiy xolatlarini xisobga olgan holda ish ko‘rshiga, odamlarning ijobjiy, salbiy xususiyatlarini, ularning o‘zlariga xos bo‘lgan individual jihatlarining qay yusinda va nima sababdan yuzaga kelishini ko‘ra olishiga, tevarak-atrofini qurshab olgan boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatishiga yordam beradi. Bu fanni jiddiy o‘rganishga kirishgan har bir kishi uzining ham kuchli, ham zaif tomonlarini ko‘ra oladi, o‘z ustida ishlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi, o‘zining ijobjiy sifatlarini yanada yaxshilashga, nuqsonlarini esa yuqota olishga o‘rganadi.

Harbiy rahbar mahorati bilimlarni o‘zlashtirish xizmat va o‘quv faoliyatida yordam beradi, ya’ni yaxshiroq tushunish, vazifalarni aniq qo‘yish, o‘quv-dala mashg‘ulotlarni tashkillashtirish, harbiy faoliyatining shart-sharoitlarini ochib ko‘rsatadi.

Harbiy rahbar maxorati va etikasi fanining mazmuni haqida gapirishdan oldin umuman «mahorat» tushunchasining mohiyati, ya’ni uning nimani «anglatishi» to‘g‘risida tuxtalib o‘sak.

Mahorat - deb madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko‘rsatkichi, o‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi, mutaxassislik fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi va ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish layoqatlilagini aytishimiz mumkin.

Harbiy rahbar mahorati va etikasi harbiy xizmatchi va harbiy jamoalar ichki olami, axloqiy rivojlanish qonuniyatlarini haqidagi fan bo‘lib, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Shuni aytib o‘tish kerakki, Bo‘lajaka chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi mahorati nazariyadan ko‘ra amaliyetga yaqinroq, ya’ni harbiy xizmatchi o‘z faoliyatida tuqnash keladigan muammolarni taxlil qilishga va hal etishga yo‘naltirilgan.

Harbiy xizmatchilar man’naviy-ruhiy dunyosiga harbiy xizmat, jangovar vaziyat katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatga chaqirilgan yosh yigitlar qisqa vaqt - 12 oy ichida chinakam erkakday faoliyat yurita boshlaydilar.

Harbiy rahbar mahorati va etikasi fan sifatida o‘z oldiga ma’lum maqsadlarni qo‘yadi. Ular qo‘yidagilar:

- bo‘lajak chaviruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo‘lishlari;
- tinchlik davrida va urush sharoitida o‘z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma’naviy, siyosiy va jangovar xislatlarni;
- jangovar mahoratni shakllantirish;
- bo‘lg‘usi ofitserlardan nafaqat o‘z kasbining ustasi bo‘lish, shu bilan birga ulardan yuksak axloqiy-ma’naviy xislatlarga va chuqr bilimga ega bo‘lgan tarbiyachi turli vaziyatlarda nostandart harakat qiladigan vatan himoyachilarini yetishtirishdir.

Harbiy rahbar mahorati va etikasi fanini o‘qitish natijasida:


- axloqning vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi dunyo mutafakkirlarining axloqiy - estetik merosi, Amir Temur va temuriylar davrida axloqiy-estetik g‘oyalarning rivojlanishi, axloqiy-estetik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishida dinning tutgan o‘rni kabi ma’lumotlarni bilishi;
- o‘quvchi yoshlari guruuhlarida va harbiy jamoalarda ma’naviy munosabatlarni muvofiqlashtirish, axloqiy-ma’naviy kelishmovchiliklarning oldini olish, qo‘shinlarning yuqori jangovar

tayyorgarligini mustahkamlash, axloqiy xulq-atvor mezonlarini belgilay olish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy-siyosiy va psixologik tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyani bilishi va ulardan foydalana olishi, ilmiy va kasbiy adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, axborotlar tayyorlash va uzata olish malakagasiga ega bo'lishi kerak.

### **1.2. Mutaxassislik fanlarining tarkibiy tuzilmasi va strukturasi**

Muallif fikrini davom ettirib, biz bu faoliyatga buzg'unchilik munosabati, qaramaqarshiliklarni hal qila olmaslik va muvaffaqiyatga erishishga olib keladi, deb hisoblaymiz. Biz axloqiy javobgarlikni o'qituvchining ijtimoiy va axloqiy talablarni o'zlashtirishi, jamoatchilik deb tushunamiz.



**2. rasm.** Harbiy rahbar mahorati va etikasi fanini o‘qitish natijasida bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisida yuzaga keladigan kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi

Bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarga yuqori sifatli ta’lim tizimini tashkil etish, ularning o‘zining ustida mustaqil ishslash qobilyatini oshirish va ularni ijodiy xarakterini rivojlantirish, kasbiy axloqiy normalarga rioya etish Bo‘lajaka chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi mahorati va etikasi kompetensiyasini rivojlantirishga hizmat qiladi. Harbiy rahbar kompetensiya, o‘qituvchilar va murabbiylarning bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarni o‘rganish va rivojlantirishda qo‘llashgan pedagogik tizimlardan foydalanishga tayyorliklarini ifodalaydi.

Pedagogik kompetensiya o‘qituvchilarning bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘rganish usullarini aniqlash, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam berish, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqalar kabi pedagogik tizimlarni qo‘llashga qodirliklarini tushuntiradi.

Harbiy rahbar mahorati va etikasi kompetensiya o‘qituvchilar uchun juda muhimdir, chunki ular bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘rganish va rivojlantirish jarayonida bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarga yordam berish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yordam beradi.

Bulardan kelib chiqib shuni ko‘rishimiz mumkinki, bo‘lajaka chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchi mahorati va etikasi kompetensiya bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, kasbiy mahoratga ega bo‘lish, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Harbiy rahbar mahorat kompetentlik** - bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisining ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori kasbiy saloxiyat, shuningdek muloqatchanlik, ijodkorlik, kasbiy-axloqiy va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish.

**Etik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom ahloqiy muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**Motivasion komponent** – bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisining maqsadlarini, talablari va qiziqishlarini tahlil qilish, ularni qondirish va qo‘llab-quvvatlash, o‘z ustida ishslash uchun motivlar yordamida stimul paydo bo‘lishi.

Motivasion va ehtiyojli faoliyatga asoslangan komponent bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisining harbiy rahbar mahorati va etikasi kompetentligini rivojlantirish uchun barqaror ijobiy motivlarni yaratadi;

pedagogik faoliyatning ahamiyatini tushunishni;

o‘quv–tarbiya jarayonlariga tegishli xatti-harakatni ongli ravishda tanlashni amalgalashni;

o‘qituvchining kompetentligini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini;

motivasion jarayonlarga ijobiy munosabatni aks ettiradi va kasbiy vazifalarni hal qilishda zamonaviy metodlarni qo‘llashni;

ichki motivlarni, bo‘lajak kasbiy o‘sishni;

tashqi motivlar-bu moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, jamoada o‘zini o‘rnini topish istagi kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining motivasion komponenti amalga oshirilayotgan faoliyatga ijobiy munosabatni anglatadi.

Ushbu komponentning rivojlanish ko‘rsatkichlari quyidagilar:

- tadqiqot va loyiha - faoliyatni maqsadli-rivojlantirishga hissa qo‘shadigan motivlar va qiymat yo‘nalishlarining mavjudligi;
- mustaqil-loyiha-tadqiqot-faoliyatiga tayyorlik;
- bajarilgan vazifalar natijasi uchun javobgarlikni anglash;
- faoliyatning ijobiy natijasiga yerishishga ye’tibor qarating;
- ijodiy-o‘zini anglash uchun yehtiyoj.<sup>2</sup>

**Kognitiv komponent-** bu insonning o‘rganish va ma’lumotlarni qabul qilishga, o‘zlashtirishga va saqlashga qiziqishni oshirish uchun psixologik komponent. Bu motivasiya turi o‘rganish jarayonida bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘zlarining o‘rganishga qiziqishini oshirishida juda muhimdir. Kognitiv komponent bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘zlarining o‘rganishga qiziqishini oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladi. Bu bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘zlarining o‘rganishga qiziqishini oshirish uchun muhim savollar berish, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarning o‘zlarining o‘rganishiga qiziqishini oshirish uchun mos keladigan mashqlar tuzish va boshqa kognitiv vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

**Refleksiv komponent-** o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini tahrirlash, o‘z-o‘zini kofiguratsiya qilish va o‘z-o‘zini o‘zgartirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Refleksivlik, kasbiy jihatdan muhim sifat vazifasini o‘tab, kasbiy sohadagi yuqori darajadagi ijodkorlik bilan, shu pozitsiyada o‘zini o‘zi anglash va faoliyat samaradorligini baholash bilan chambarchas bog‘liqdir. Refleksivlikning ahamiyati shundaki, u boshqa shaxsiy fazilatlarni, xususan, muloqot, moslashuvchanlik, hissiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

<sup>2</sup> Долгодворова- Т.И.- Проектно- исследовательская-деятельность-как-средство-самореализации-в-педагогической-науке:-автореф.дис. канд.пед.наук.:13.00.01/- Долгодворова Татьяна Ивановна.-Омск.-2000.-25-с.)

Ular birgalikda o‘zaro ta’sirlashishning yangi usullarini faol qidirishni ta’minlaydi. Refleksivlik bo‘lajak pedagog-tarbiyachiga bola shaxsini rivojlantirish uchun pedagogik faoliyatning samaradorligi nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qilish, tushunish va baholash uchun uning faoliyati va o‘ziga nisbatan uning sub’ekti sifatida faol tadqiqot pozitsiyasiga kirishga imkon beradi.

**Kreativ komponent** - "yaratuvchi qobiliyat" degan ma’noni anglatadi. Bu, insonning o‘zining yaratuvchi, ijodkorlik, innovasiyalar va yaratishga qodir bo‘lishi bilan bog’liq bo‘lib, umuman o‘zining yaratuvchi qobiliyatini ta’minlaydigan jihatlarini ifodalaydi. Kreativ komponent, umuman, insonning ijodkorlik bilan bog’liq bo‘lgan xususiyatlarini, yaratuvchi fikrlash va yaratish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu, turli sohalarda, masalan, san’at, texnologiya, biznes va boshqalar kabi sohalarda foydalilaniladi.

**Deontologik komponent**, etik va huquqiy qoidalarga rioya qilishni anglatadi. Bu, insonning huquqiy va etik qoidalarga rioya qilishga qodir bo‘lishi bilan bog’liqdir. Bu qoidalarni boshqarish, ularni buzish, huquqiy va etik amalga oshirish, o‘zining insonparvarlik va adolatga qarshi tuyg‘usi bilan bog’liqdir.

Deontologik komponent, harbiyga oid sohalarda foydalilaniladi. Bunda, insonning o‘zining huquqiy va etik qoidalarga rioya qilishni o‘rganish, ularni amalga oshirish, o‘zining ishonchli, etik va huquqiy tanqidiy qarorlarini qabul qilish va o‘zining qarashlari va ishonchlari bilan bog’liq bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda yoshlарimizni harbiy vatanparvar qilib tarbiyalashda avvalambor biz ularga miliy qadriyatlarimizni o‘rgatamiz va o‘qitamiz. Bu yoshlарimizni harbiy vatanparvar bo‘lib tarbiyalanishiga katta samara beradi. Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonning o‘zgarishiga katta tasir ko‘rsatayotgan fan, texnikalar borasidagi o‘zgarishlar, ularni boshqarish masalalarini to‘g‘ri tushuntirish orqali biz ularda harbiy texnikalarni boshqarishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib boramiz. Bu borada bizga bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilariga mutaxassislik fani katta yordam beradi. Ushbu maqolada bo‘lgan qiziqishlarini oshirib boramiz. Bu borada bizga bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilariga mutaxassislik fanining maqsad vavazifasi to‘g‘risida ma’lumotlar berilishi orqali fanning maqsad va vazifasini topish to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borilgan. bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilariga mutaxassislik fani O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismi ekanligi nazariy bilimlarga asoslanib isbotlangan. Chunki ushbu fan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy zaxirasini tayyorlash uchun yordam beradigan fan hisoblanadi va uni ilmli, bilimli yoshlар bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: «O‘zbekiston», 2017. –22-b.
2. Долгодворова- Т.И.- Проектно- исследовательская-деятельность-как-средство- самореализации-в-педагогической-науке:-автореф.дис. канд.пед.наук.:13.00.01/- Долгодворова Татьяна Ивановна.-Омск.-2000.-25-с.)
3. A zizzodjaeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik m axorat. - T.: С Н о'Ipou, 2005.
4. Ochilov M. Y A ngi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
5. Inoyatov I.YU. Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch». 2001.
6. Abduqahhor Ibrohimov, Hayriddin Sultonov, Nazrulla Jo‘rayev. «Vatan tuyg‘usi». 1996.
7. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash» o‘quv dasturi. 2005.
8. O‘zbekistonRespublikasining «Mudofaato‘g‘risida»gi qonuni.2018-y.
9. O‘zbekistonRespublikasining«Harbiy xizmati utash to‘g‘risida»gi qonuni. 2019-y.
10. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash»o‘quv dasturi 2017-y.

11. Axatov, Samariddin Aliqulovich (2022). CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (4), 56-61.